

XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



2025- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

(dastlabki ma‘lumot)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 370,1 **ming so‘mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 17,4 foizga o‘tdi.

Tarmoqlar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi (2025- yil Yanvar-mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)


SANOAT SOHASIDA




QURILISH SOHASIDA




SAVDO SOHASIDA



TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA



AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA



MOLIYAVIY VA SUG‘URTA FAOLIYATI SOHASIDA



TA'LIM SOHASIDA



3 537,5
ming so'm

Yanvar

Fevral

3 586,2
ming so'm

3 626,1
ming so'm

Mart

Yanvar-mart

3 588,5
ming so'm

SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY XIZMATLAR SOHASIDA



3 402,8
ming so'm

Yanvar

Fevral

3 323,9
ming so'm

3 556,5
ming so'm

Mart

Yanvar-mart

3 428,7
ming so'm

SAN'AT, KO'NGIL OCHISH VA DAM OLISH SOHASIDA



3 655,5
ming so'm

Yanvar

Fevral

3 816,6
ming so'm

3 847,7
ming so'm

Mart

Yanvar-mart

3 780,1
ming so'm

BOSHQA FAOLIYAT TURLARI SOHASIDA



5 126,5
ming so'm

Yanvar

Fevral

4 888,4
ming so'm


6 004,4
ming so'm

Mart

Yanvar-mart

5 347,8
ming so'm

Sohalar kesimida o'rtacha oylik ish haqi miqdori va o'sish sur'ati (2025 yil yanvar-mart)



■ Ish haqi miqdori ming so'm ▲ O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da

O'rtacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari savdo sohasida 2,7 marta, sanoat sohasida 132,2 %, san'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati 118,4 %, qurilish sohasida 114,8% va axborot va aloqa faoliyati sohasida 113,5 % kuzatildi.

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlardagi
xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o'rtacha oylik ish haqi**
(2025- yil yanvar-mart; qishloq xo'jaligi va kichik
tadbirkorlik subektlaridan tashqari)

	<i>Xodimlar soni, kishi:</i>	<i>Ish haqi fondi, mln so'm:</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm:</i>
Jizzax viloyati bo'yicha – jami	114 789	1 488 749,6	4 370,1
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	14 186	247 499,2	5 721,6
Qurilish	1 308	19 011,2	4 848,6
Savdo	2 007	54 167,2	9 331,1
Tashish va saqlash	707	16 464,4	7 740,7
Yashash va ovqatlanish	141	1 421,1	3 407,8
Axborot va aloqa	480	13 222,8	9 125,4
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	1 853	61 978,1	11 185,4
Ta'lim	54 312	583 614,5	3 588,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	23 428	233 934,2	3 428,7
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	965	10 898,1	3 780,1
Boshqa faoliyat turlari	15 402	246 538,9	5 347,8

Faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi moliya va sug'urta faoliyati sohasida 11 185,4 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,6 martaga yuqori), savdo faoliyati 9 331,1 ming so'mni (2,1 marta) hamda axborot va aloqa sohasida 9 125,4 ming so'mni (2,1 marta) tashkil etib, boshqa faoliyat turlariga nisbatan yuqoriligi kuzatildi.



Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar G'allaorol (159,0 %) tumanida kuzatildi.

Shu bilan birga, viloyatning ayrim tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ko'rsatkichi Forish (37,3 %) va Do'stlik (37,6 %) tumanlarida kuzatildi.



Qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori ko'rsatkichlari Zomin tumani (134,3 %) va Jizzax shahri (119,1 %) da kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ayrim tumanlarining qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi G'allaorol (64,0 %) va Zafarobod tumanlari (65,0 %) da kuzatildi.



Savdo sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Jizzax shahrida (107,6 %) viloyat darajasidan yuqori bo'ldi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Savdo sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Baxmal (18,4 %) tumanida kuzatildi.



Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahrida (130,8%) va Zarbdor (108,1%) tumanida qayd etildi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Zafarobod (73,4 %), Forish (79,6 %) hamda Yangiobod (80,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Arnasoy (157,6 %), Zomin (116,0 %), Jizzax shahri (108,5 %), Paxtakor (101,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ayrim tumanlarda viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Zarbdor (71,0 %), G'allaorol (74,4 %) tumanlarida kuzatildi



Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Yangiobod tumanida (109,9 %) kuzatildi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Jizzax shahrida (99,9 %) kuzatildi.


Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2025- yil yanvar-mart, ming so'mda)

<i>O'rtacha oylik ish</i>	<i>2024- yil yanvar-mart</i>	<i>2025- yil yanvar-mart</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Jizzax viloyatida	3 722,5	4 370,1	117,4
Jizzax shahri	4 664,7	5 763,5	123,6
tumanlar:			
Arnasoy	3 021,2	3 979,0	131,7
Baxmal	3 232,9	3 473,5	107,4
G'allaorol	3 824,9	4 334,6	113,3
Sharof Rashidov	3 015,4	3 565,9	118,3
Do'stlik	2 818,6	3 249,0	115,3
Zomin	3 172,8	3 929,0	123,8
Zarbdor	3 552,6	3 656,3	102,9
Zafarobod	3 533,8	3 663,2	103,7
Mirzacho'l	2 883,1	3 132,9	108,7
Paxtakor	3 246,3	3 861,9	119,0
Forish	2 746,6	2 931,6	106,7
Yangiobod	2 942,6	3 276,2	111,3

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida 5 763,5 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 123,6 %), Arnasoy tumanida 3 979,0 ming so'mni (131,7 %), Zomin tumanida 3 929,0 ming so'mni (123,8 %), Paxtakor tumanida 3 861,9 ming so'm (119,0 %) va Sharof Rashidov tumanida 3 565,9 ming so'm (118,3 %) ni tashkil etib, viloyatda yuqori o'sish sur'atlariga erishdi.


Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan o'sishi

(2025- yil yanvar-mart oylarida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi tahlil qilinganida, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 131,9 % ni tashkil qilgan bo'lsa, qolgan barcha tumanlarda viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichiga nisbatan kam miqdorda ekanligi kuzatildi.

***Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida mehnatga haq to'lash eng kam miqdori (2023 yil dekabr oyidan 1 050,0 ming so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.*



**JIZZAX VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI
2025- yil YANVAR-MART**

*Nashrga mas'ul:
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi*

tel.: 0(372) 221-53-51

Buyurtma raqami № 28.04.2025- yil Tiraj 15 nusxa

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Jizzax shahri, To'qimachilar ko'chasi 7**

Rasmiy veb-sayt: www.jizzaxstat.uz
elektron pochta manzili: info@jizzaxstat.uz
elektron himoyalangan pochta manzili: jiz.stat@exat.uz